“Tabiiy birikmalar asosidagi dori vositalari” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi

2018 yil 18 sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutida FA akademiklari B.T.Ibragimov va A.S.To‘rayev tashabbusi bilan “Tabiiy birikmalar asosidagi dori vositalari” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi. Unda Respublikamizdagi yetakchi mutaxassislardan tashqari Rossiya, Qozog‘iston hamda Xitoy davlatlaridan 20 ga yaqin olimlar ishtirok etishdi.

Konferensiyada tabiiy biologik faol birikmalarning tuzilishi va funksiyalarini tadqiq etish, tirik organizmlarni normada va patologiyada faoliyat ko‘rsatishining molekuyar menizmlari, o‘simlik va hayvon maxsulotlari xom ashyosi asosida yangi dorivor moddalar ishlab chiqish, dorivor moddalarning farmakokinetik va farmakodinamik ko‘rsatkichlarini o‘rganish, makromolekulyar biologik faol moddalarni tadqiq qilishning ilmiy va metodologik yondashuvi komplekslari ko‘rib chiqildi va atroflicha muhokama qilindi.

Konferensiya natijalari respublikada tabiiy birikmalarni tadqiq etishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi va tibbiyot va farmatsevtika amaliyotida yangi ilmiy ishlanmalarni joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.